



MAKTABGACHA YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALAR BILISH JARAYONLARINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY - PSIXOLOGIK XIZMATDA RUHIYATIDAGI KAMCHILIKLARNING AXAMIYATI

Toshpo'latov Azimjon Akbarovich

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti
Maxsus pedagogika, Defektologiya (Logopediya)
mutaxassisligi 2- kurs magistri
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8017242>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-June 2023 yil
Ma'qullandi: 05-June 2023 yil
Nashr qilindi: 08-June 2023 yil

KEY WORDS

*Ijtimoiy, psixologik, aqli zaif,
vizual - harakat, vizual -
mantiqiy,
psixologik xizmat, fikrlash,
idrok, tasavvur.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar bilish jarayonlarini shakllantirishning ijtimoiy - psixologik xizmatda ruhiyatidagi kamchiliklar va bu kamchiliklarni kelib chiqishida oiladagi muhitning ta'siri haqida to'xtalib o'tilgan. Psixologik xizmatni shakllantirish va rivojlantirishning masalalari ochib berilgan

Bizga ma'lumki, aqli zaif bolalarda markaziy nerv sistemasining organik kasalliklari natijasida bilish faoliyati turg'un pasaygan bo'ladi. Bunday bolalarni ayrim hollarda nuqsonsiz bolalardan ajratish qiyin bo'ladi. Ba'zan bunday bolalar umumta'lim maktabgacha ta'limlarga tushib qolib, nuqsonsiz tengqurlari singari o'quv materiallarni o'zlashtira olmaydilar. Natijada, bunday bolalarning bilim saviyalari pasayib, surunkali o'zlashtirmovchilar qatoriga kirib qoladilar. Aqliy zaiflikni butunlay bartaraf etib, aqlni meyorga keltirib bo'lmasada, ularga qanchalik erta tibbiy-pedagogik va defektologik yordam ko'rsatilsa, shuncha tez hayotga moslashadilar.

Agar aqli zaif bolani ta'lim-tarbiyasiga o'z vaqtida tegishli e'tibor berilmasa, bola nuqsonlari chuqurlashadi va bunday bolalar ko'pincha oilasiga ham, jamiyatga ham og'ir yuk bo'lib qoladilar.

Shu nuqtai - nazardan, nuqsonli bolalar rivojlanishi sharoitida oila katta, ko'pincha hal qiluvchi rol oynaydi.

Zero, oila jamiyatning boshlang'ich pog'onasi bo'lib, turli vazifalarni bajarishga qodir va ulardan eng muhimi ham bolalar tarbiyasidir. Demak, oilasida aqli zaif bola tarbiyalanayotgan bo'lsa, ota-onalar nimalarga e'tibor berishlari yoki nimalarga amal qilishlari kerakki, toki o'zlari ham, bola ham o'zidagi nuqsonga diqqatni qadamay, imkon qadar o'z tengdoshlaridan orqada qolmaslikka intilishga imkoniyat tug'ilsin.

Bugungi kunda maktabgacha ta'limgacha yoshdagi bolalarning ko'pchiligi uyda tarbiyalanmoqdalar. Bundan ko'rinib turibdiki, aksariyat bolalarning tarbiyasi ota-onalar qo'lida ekan, nuqsonli bolalar tarbiyasiga to'g'ri yondashadilar deb aytolmaymiz.

Ayrim ota-onalar bolaga g'amxo'rlik qilaman deb undagi nuqsonni yashirishga

o'rinadilar. Bolani umumiy maktabgacha ta'limga nuqsonsiz bolalarga qo'shib qoyadilar. Ayrimlari o'z farzandini o'z tengdoshlaridan orqada qolayotganini, xulqi va aqliy kamolotidagi kamchiliklarni sezib, uni nuqsonligidan chuqur qayg'uradilar, bolalariga ortiqcha e'tibor beradilar, har bir harakatiga g'amxo'rlik qiladilar. Bolani hatto qo'lidan keladigan vazifalardan ozod qiladilar. Vaholanki, ularning bu rahmdilliklari bola uchun hech qanday foyda keltirmaydi. Aksincha, haddan tashqari erkinlik, mustaqillik, murakkab hayot sharoitiga yetarli darajada moslashish qobiliyatidan bolani mahkum etganliklarini sezmaydilar. Biroq, bunday ota-onalarni ham ayblash mumkin emas.

Axir aksariyat ota-onalar uchun farzanddan-da ulug' narsa bormi? U nechog'li nuqsonli bo'lmasin, axir jigarbandlari-ku!

Ba'zan oilada aqli zaif bolaga boshqacha munosabatni ham uchratish mumkin. Bolaning nuqsonligiga ko'nikishni xohlamasdan, uning qobiliyatini to'g'ri baholashmaydi. Ko'pincha ota-onalar bolasidagi nuqsonlarni sezmaydilar. Bolani tashxis markazlari ko'rigidan o'tishiga yoki yordamchi maktabgacha ta'limga o'qishga yuborishga qarshilik ko'rsatadilar. Ota-onalarning bu o'rinsiz harakatlari bolaga nisbatan e'tiborning susayishiga olib keladi, bundan faqat bolaning nuqsoni ko'payib boradi. Ota-onalar shuni yodda tutmoqlari kerakki, aqli zaif bolalarning har biri o'ziga xos individual munosabatni talab qiladi.

Bunday bolalarga o'z vaqtida to'g'ri ta'lim-tarbiya, oddiy mehnatmalakalarini berish, aqliy, nutqiy, shaxsiy nuqsonlarni maxsus ta'lim – tarbiya berish orqali bartaraf etish, hayotga moslashtirish mumkin. Ota-onalar ularni maxsus maktabgacha ta'lim-internatlarga berib, doimiy ravishda oligofrenopedagog, tarbiyachi psixolog, defektolog, logopedlar bilan uzviy aloqada bo'lib, suhbatlashib, yordam olib turishlari lozim.

Bilish jarayonlarini shakllantirishda ijtimoiy - psixologik xizmat haqiqatni bevosita va umumlashtirib aks ettiruvchi bilish jarayonidir. Bugungi kunda bolalar bilish jarayonlarini shakllantirishda ijtimoiy - psixologik xizmatini rivojlantirishning uch bosqichi tasvirlangan - vizual - harakat, vizual - mantiqiy, og'zaki - mantiqiy. Yakuniy bosqichda umumlashtirish, tushunchaning shakllanish darajasi, ishlatiladigan materialning xususiyatiga ko'ra o'ziga xos-kontseptual va mavhum kontseptual fikrlash tasniflanadi.

Bilish jarayonlarini shakllantirishda ijtimoiy - psixologik xizmatning o'ziga xos xususiyatlari sog'lom bolalarga nisbatan nutqni egallashga kechikkan aqli zaif bolalarda kuzatiladi. Aqli zaif bolalarda bilish jarayonlarini shakllantirishda ijtimoiy - psixologik xizmatning rivojlanishi, uning o'ziga xos xususiyatlari bir qator faylasuf va psixologlarning e'tiborini tortdi, xususan, aqli zaif bolalarda ruhiy jarayonlarning o'ziga xosligi nutqning bilish jarayonlarini shakllantirishda ijtimoiy - psixologik xizmatni shakllantirish va rivojlantirishdagi rolini tushinishga keng imkoniyat yaratadi.

Namoyish korona-motorli fikrlash tashqi harakatni ob'ekt bilan birlashtiradi, bunda bola maqsadga erishish vositasi sifatida turli xil narsalardan foydalanadi.

Amaliy vazifalarni amalga oshirishda muammoni hal qilishni bir holatdan ikkinchi holatga o'tkazish kerak. Bu vizual umumlashmalarning shakllanishiga olib keladi.

Aqlni tahlil qilish jarayoni juda muhim rol o'ynaydi. Aqli zaif bolalarga savodxonlikni o'rgatish bolaning nutqini tahlil qilishdan boshlanadi. Bu keyinchalik asta-sekin matnni jumlalarga, jumalarni so'zlarga, so'zlarni bo'g'inlarga, fonemalarga va tovushlarni bo'g'inlarga bo'lish kabi aqliy faoliyat bilan almashtiriladi. Arifmetika, algebra, geometriya, trigonometriya, fizika, yoki O'zbekiston tarixi, falsafa, iqtisod, siyosatshunoslik, psixologiya va

boshqa fanlarni o'rganish muammoli vazifalarni tahlil qilishdan boshlanadi.

Muayyan narsalarga e'tibor qaratish aqli zaif bolalarni tahlil qilish va sintez qilishga o'rgatishda asosiy rol o'ynaydi. Shu bilan birga, ular buni qanday va qanday qilishni bilishlari kerak. Masalan, ona tili darslarida o'smirlarga analitik va sintez faoliyatini o'rgatish uchun ishlatiladigan har qanday ibora, "it bo'ynini bukmay g'alati engashdi, menga och ko'z bilan qaradi, dumini qisib, o'zini o'rmonga urdi. "Gapni mustaqil tahlil qilish vazifasiga qo'yilishi mumkin (agar sub'ektlar bu vazifani bajarishga qiynalsa, eksperimentatorning o'zi yordam berishi mumkin). Ular predmet nomini anglatuvchi so'zlarni ko'chirib, qaysi so'zlar so'rog'iga javob bo'lishini aniqlashlari, ot va iboralarni ta'riflab, o'sha ot so'z birikmasiga tegishli belgilarni belgilashlari kerak.

Idrok va tasavvurda aks etgan narsalar bilish jarayonlarini shakllantirishda ijtimoiy - psixologik xizmatda taqqoslanadi, tahlil qilinadi va umumlashtiriladi. Bilish jarayonlarini shakllantirishda ijtimoiy - psixologik xizmat-voqe'likning umumiyashtirilgan bevosita va eng to'liq xamda eng aniq intiqosidir.

Fikrlash jarayonlaridagi fikrlar-munozaralar va tushunchalar tushuniladi va shakllanadi. Inson bilish jarayonlarini shakllantirishda ijtimoiy - psixologik xizmat faoliyati orqali voqelikni idrok va tasavvurlarga qaraganda aniqroq, to'laroq va teranroq o'rganadi.

Aqli zaif bolalarning bilish jarayonlarini shakllantirishda ijtimoiy - psixologik xizmati mustaqilligi jihatidan mustaqil va mustaqil bo'lmagan fikrlashga bo'linadi. Fikrlash mustaqilligi-bu o'z tashabbusi bilan aniq maqsad, yangi vazifalarni belgilash, amaliy va ilmiy xarakterdagi farazlar qilish, natijani tasavvur qilish, boshqa hech kim qila olmaydigan vazifani belgilash. o'z intellektual izlanishlari tufayli turli xil usullar, usullar va vositalarni topish va ularni mustaqil ravishda, hech qanday sehrsiz, ko'rsatmalarsiz hal qilishdan iborat aqliy qobiliyatni tushunish kerak.

Fikrning mustaqilligi aqlning tashabbusi, qat'iyati va tanqidida namoyon bo'ladi. Aqlning tashabbuskorligi inson o'z oldiga yangi muammo, aniq maqsad va aniq vazifalarni qo'yishini, amalga oshirishda, yakunlashda va yechimini izlashda shaxsan usul va vositalarni izlashini anglatadi. biz qo'shimcha belgilar va alomatlarini kiritishdan iborat bosqichlarning ko'rinishini taxmin qilamiz.

Shunday qilib, nutq rivojlanguniga qadar fikrlash harakatsiz, harakatchan emasligi kuzatiladi. Aqli zaif bola nutqining rivojlanishi uning bilish jarayonlarini shakllantirishda ijtimoiy - psixologik xizmatining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. A. V. Zaporjets bu jarayon faqat bolaning amaliy tajribasi va hissiy tarbiya asosida amalga oshirilishi mumkinligini tan oladi. Bolaning amaliy tajribasi-texnogen narsalar bilan tanishish, harakatlarni natijalar bilan taqqoslash, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash. Bolalar fanlararo munosabatlarni ham tushunadilar.

Xulosa Tasavvur va bilish jarayonlarini shakllantirishda ijtimoiy - psixologik xizmatning o'xshash va farqli jihatlari mavjud. Bilish jarayonlarini shakllantirishda ijtimoiy - psixologik xizmat ham tasavvur ham murakkab bilish faoliyati bo'lib, inson uning yordamida haqiqatni anglash va kelajakdagi faoliyatini oldindan tavsiflash imkoniga ega bo'ladi. Ular o'rtasidagi farq, tasavvurida hayot haqiqatining anglashni tezlashgan holda idrok etish obrazlar yordamida amalga oshadi;

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nurmuxamedova L. O'zbekistonda nogironlarning ijtimoiy muofazasi masalalari // Defektologiyaning dolzarb muammolari. Vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – T.: TDPU, 2018. – 232 b. – B.3-8.
2. Oila psixologiyasi: Akademik litsey va kasb-hunar kollej aqli zaif bolalari uchun (G'.B.Shoumarov tahr) – T.: "Sharq", 2008. – 294 b.



INNOVATIVE
ACADEMY